

MUZAFFARIDDIN IBN SOATIYNING HAYOTI VA ILMIY MEROSI

**Abdushukurov Ahror Maxmud o'g'li**

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi tayanch doktoranti,

Xoja Buxoriy o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi o'qituvchisi

e-mail.: [ahroribnmahmud9007@gmail.com](mailto:ahroribnmahmud9007@gmail.com)

[+99891 907 90 07](tel:+998919079007)

Ma'lumki, har bir mazhab ichida o'sha mazhabning fiqhiy masalalarini yoritishda mo'tabar deya e'tirof etiladigan asarlar mavjud. Hanafiy fiqhida ham "mo'tabar" deya e'tirof etiladigan matn kitoblari to'rtta bo'lib, ulardan biri "Majma' al-bahrayn" asaridir. Ushbu asarning muallifi Muzaffariddin ibn Soatiy bo'lib, uning hayoti va ilmiy faoliyatiga nazar qiladigan bo'lsak, manbalarda uning to'liq ismi Nuriddin Abul Abbos Ahmad ibn Ali ibn Sa'lab (Tag'lib) ibn Abuziyo bo'lib, "Muzaffariddin" va "Ibn Soatiy" laqablari bilan mashhur, mazhabda imom Abu Hanifaga, nasl-nasabda Ba'labakka va tug'ilib-ulg'aygan yeriga nisbat berilishda esa, Bag'dodga mansubdir. U 651/1253-yilda Bag'dodda tug'ilgan [5:29].

Ibn Fuvatiy (vaf.723.1323) "Majma' al-adab fiy mo'jam al-alqob" (Kishilarning laqablari borasidagi to'plam va jamlanma) asarida keltirishicha, u 651/1253-yil Zulqa'da oyining o'ninchi sanasi juma kunida Dartank nomli joyda tug'ilgan [10/5:260].

Unga "Ibn Soatiy" laqabi esa, otasining ismi Soatiy bo'lganligi uchun emas, balki otasining kasbi nuqtai nazaridan berilgan. Otasi Ali ibn Sa'lab asl kelib chiqishi Shom ahlidan bo'lib, Ba'labakda tug'ilib o'sib, so'ngra Bag'dodga ko'chib kelgan va o'sha yerda istiqomat qilgan. U hay'at, nujum va soatsozlik ilmida mashhur bo'lganligi sababli tarixiy manbalarda Bag'doddagi Mustansiriyya madrasasi eshiklariga osilgan mashhur soatlarni ham u yasagan deya keltiriladi [5:29].

Ibn Soatiyning yoshlik davri butunlay ulug' allomalar shahri, ilm, adab va sivilizatsiya markazi bo'lgan Bag'dod shahrida xalifalik hovlisida o'tgan.

Ibn Soatiy Bag'dod diyorida ulg'ayib, u yerda ilm-fan bilan mashg'ul bo'lgan va komillik martabasiga erishib, shar'iy ilmlar borasida o'z asrining peshvosi, hofiz, far'iy masalalar va ularga dalillar keltirishda mohir olimga aylangan. Zamondosh olimlari uni ilm maydonida mohir chavandoz bo'lgan, deya e'tirof etishgan.

Abdulqodir Qurashiy "al-Javahir al-muziyya" (Nur taratuvchi javharlar) asarida keltirishicha, u ulug' imom, alloma, o'z zamonasining yetuk olimlaridan biri bo'lib, Bag'dodda tug'ilib o'sgan. Fiqh ilmida komillik darajasiga yetgan [2/1:209].

"Mir'at al-jinan" asarining muallifi Abu Muhammad Yofi'iy (vaf.768/1366), "Al-javahir al-muziyya" asarining muallfi Abduqodir Qurashiy (vaf.775/1373), "Al-manhal as-sofiy" asarining muallifi Yusuf ibn Tag'ribardiy Otabekiy (vaf.874/1470), "Taj at-tarojim" asarining muallifi Abulfado Qosim ibn Qutlubug'o Sudaniy (vaf.879/1474), "At-tabaqot as-saniyya fiy tarojim al-hanafiyya" asarining muallifi Taqiyiddin Abduqodir Tamimiy (vaf.1005/1596) va "Kashf az-zunun" asarining muallifi Hoji Xalifa (vaf.1067/1656) kabi olimlar olimning tarjimai holini bayon qilish asnosida uning fiqhda hanafiy mazhabiga mansub ekanligiga ittifoq qilishgan.

Qosim ibn Qutlubug'oning keltirishicha, u vafot etgan sana 694/1295-yilda ekanligi o'z tasdig'ini topgan. Shuningdek, Abdulloh Qurashiy, Abu Abdulloh ibn As'ad Yofi'iy, Abdulhay Laknaviy,

Xayriddin Zirikliy, Abdulloh Mustafo Marog'iy kabi olimlar uning ushbu sanada vafot etganligiga ittifoq qilishgan. U Junayd Bag'dodiyning yoniga dafn qilingan [3:95].

Tarixiy ma'lumotlarga asoslangan holda keltirishimiz mumkinki, muallif o'sha davrda ilm-ma'rifat o'chog'i bo'lgan va ko'plab zabardast olimlarni o'zida jamlagan Bag'dod mashoyixlarining ko'pchiligidan diniy ilmlarni o'rgangan. Xususan, u va otasining Mustansiriyya madrasasi bilan aloqadorligi ko'plab ustozlar bilan uchrashib, ulardan ilm olishiga yordam bergan.

Manbalarda muallifning ustozlari sifatida quyidagi olimlar keltirilgan:

1. Tojiddin Ali ibn Sanjar. To'liq ismi Abulhasan ibn Abulyaman bo'lib, Ibn Sabbok Bag'dodiy nomi bilan mashhurdir [4:121].

Abduqodir Qurashiyning keltirishicha, uning ismi Ali ibn Abul Yaman bo'lib, "Ibn Sabbok" nomi bilan tanilgan, Bag'dod diyorida hanafiy olimlarning raisi hamda Mustansiriyya madrasasida mudarris bo'lgan. U 661/1263-yilda tug'ilgan. Fiqh ilmini Zohiriddin Muhammad ibn Umar Nujobodiydan, meros ilmini Abulalodan olgan [2/1:281].

2. Zohiriddin Buxoriy. Uning to'liq ismi Muhammad ibn Umar ibn Muhammad Nujobodiy Buxoriydir. Abdulhay Laknaviyning keltirishicha, u shayx, faqih, mazhab bilimdoni, yetuk alloma bo'lgan. U ilm talabida Damashq diyorida bo'lib, ilmining asosiy qismini Bag'dodda olgan. U 616/1219-yilning Shavvol oyida tug'ilgan. Uning vafot etgan sanasi borasida manbalarda zikr qilinmagan [4:183].

Abduqodir Qurashiyning keltirishicha, uning to'liq ismi Zohiriddin Abul Muzaffar Muhammad ibn Umar ibn Muhammad Nujobodiy Buxoriy Hanafiydir. U fiqh ilmini Buxoroda shams al-aimma Kardariydan olgan. Muhammad ibn Muhammad ibn Umar Axsiykatiyning qo'lida Qur'onni yod olgan. Undan Muzaffariddin Abul Abbos Ahmad ibn Soatiy fiqh ilmini, Abulalo Mahmud esa, meros ilmini o'rgangan. U Qosim Barzaliyga 632/1234-yilda tadrish uchun ijoza bergan. Uning asarlaridan biri "Talxisi muxtasari Quduriy"dir [2/1:104].

Boshqa manbalarda uning asarlari sifatida "Kashf al-asror fiy usul al-fiqh" ham keltirilgan [13:15]. Hoji Xalifa "Kashf az-zunun an-asamiy al-kutub val funun" asarida: "Kashf al-ibham li daf' al-avham" asari alloma Zohiriddin Muhammad ibn Umar Nujobodiy Buxoriy Hanafiyga tegishlidir. U bu asarini 668/1269-yilda Bag'doddagi Mustansiriyya madrasasida ta'lif qilgan", deya keltirib o'tgan [8/2:1484,1485].

3. Shamsiddin ibn Sayqal Jazariy. To'liq ismi Ma'd ibn Abulfath Nasrulloh ibn Rajab ibn Abulfath ibn Hasan ibn Ismoil Jazariy Bag'dodiy bo'lib, "Shamsiddin" va "Ibn Sayqal" laqabi hamda "Abunnado" kunyasi bilan tanilgan, asli Mavsildan bo'lgan adib, lug'atshunos olim bo'lgan. Uning qalamiga mansub mashhur "al-Maqomat az-zayniyya" asari mavjud [3:183].

Ibn Sayqal 701/1301-yilda vafot etgan [9/2:465].

Muzaffariddin ibn Soatiyning asosiy ilmiy faoliyati mashaqqatli davrga to'g'ri kelgan. Olimlarning tarjimai holi haqida yozilgan kitoblarni ko'zdan kechirgan tadqiqotchi Ibn Soatiyning oz sanoqli shogirdlari mavjud ekanligiga guvoh bo'ladi. Ehtimol bunga uning Mustansiriyya madrasasida tadrish faoliyatini olib borganligi va undan ta'lim olgan shogirdlarning adadi ko'p bo'lganligi uchun ular haqida batafsil keltirish muarrixlarga qiyinchilik tug'dirganligi sabab bo'lishi mumkin. Muallifdan Mustansiriyya madrasasida juda ko'plab tolibi ilmlar shar'iy ilmlardan ta'lim olishgan. Aksar tarixiy manbalarda uning quyidagi shogirdlari haqida ma'lumotlar keltirilgan:

1. Tojiddin Ali ibn Anjab Soiy. To'liq ismi Ali ibn Anjab ibn Usmon ibn Abdulloh ibn Horis bo'lib, Abul Husayn va Abu Tolib kunyasi, Tojiddin va Ibn Soiy laqabi bilan mashhur bo'lgan. U tog'asi Ali ibn Tag'lib, ya'ni, Muzaffariddin ibn Soatiyning qo'lida Qur'onni yod olgan [3:354]. U tarixga doir "al-Jome' al-al-muxtasar fiy uyun at-tarix va uyun as-siyar" (Tarixda o'tgan mashhur shaxslar va mashhur siyrat sohiblari borasida muxtasar jamlanma), "Tobaqot al-fuqaho val quzot vash-shuhudi bi Bag'dod" (Bag'dod diyorida o'tgan faqih, qozi va shahidlar tabaqalari), "Axbar al-xulafo va axbar al-vuzaro" (Xalifa va vazirlar haqidagi xabarlar), "Tarix ash-shuaro" (Shoirilar tarixi), "Mana'iq al-xulafo al-abbasiyyin" (Abbosiylar xalifalarning siyratlari), balog'at ilmiga doir "Sharhi nahj al-balag'o", fiqh ilmiga doir "Irshad at-tolib ila ma'rifat al-mazahib" (Mazhablarni tanish yo'liga o'quvchini yo'llash), tasavvufga doir "Axbar az-zuhhod" (Zohidlar haqidagi xabarlar) kabi ko'plab asarlar yozgan.

U 674/1275-yilda Ramazon oyining o'ninchi kechasida Bag'dodda vafot etgan.

2. Zakiyiddin Samarqandiy. U "rukniddin" va "roziyiddin" laqablari bilan ham mashhurdir. U fazilat sohibi, olim va parxezkor kishilardan bo'lgan. Ibn Soatiy unga "Majma' al-bahrayn" asari, uning sharhi va sahih bo'lgan barcha ilmlarni o'zidan rivoyat qilishga ijoza bergan. U 690/1291-yildan keyin vafot etgan [13:19]. Uning Ibn Soatiyga shogird ekanligi haqida manbalar ichida faqat Abdulhay Laknaviyning "al-Favaid al-bahiyya fiy tarojim al-hanafiyya" asari, "Majma' al-bahrayn" asari hamda unga muallifning o'zi tomonidan yozilgan sharhning tahqiqida keltirilgan.

3. Nosiriddin Qavnaviy. To'liq ismi Nosiriddin Muhammad ibn Ahmad ibn Abdulaziz Qavnaviy Dimashqiy bo'lib, "Ibn Rabva" nomi bilan tanilgan. U 679/1280-yilda tug'ilgan. Fiqh, arab tili va meros kabi ilmlarni chuqur o'zlashtirgan olim, xatib, munozara va bahs bobida mashhur bo'lgan.

U "Majma' al-bahrayn" asarini Ibn Soatiyning qo'lida hamda Marg'inoniyning "al-Hidoya" asarini "mantiqiy" nomi bilan tanilgan shayx Roziyiddin Ibrohim ibn Sulaymonning (vaf.732/1331) qo'lida ta'lim olgan [13/1:19].

Uning qalamiga mansub "ad-Durr al-munir fiy halli ishkali al-jome' al-kabir" ("al-Jome' al-kabir" asarida kelgan mushkil masalalarni yechish borasida nur taratuvchi dur) nomli, Abulbarakat Nasafiyning usul al-fiqhga doir "al-Manor" asariga "Sharh al-manor" nomli sharh hamda "Quds al-asror fiy ixtisor al-manor" ("al-Manor" asarini muxtasar qilish borasida sirlar olami) va meros ilmiga doir Sirojiddin Sajovandiyning (vaf.600/1203) "al-Faroiz as-sirojiyya" asariga sharh kabi asarlari mavjud [3:175].

U 764/1362-yilda Damashqda vafot etgan [2/1:15,16].

4. Majiddin ibn Soatiy. To'liq ismi Abulfazl Muhammad ibn Muzaffariddin Ahmad ibn Ali ibn Tag'lib Bag'dodiy bo'lib, u Muzaffariddin ibn Soatiyning o'g'lidir. U ilk ilmlarni otasidan olgan. Fiqh, usul al-fiqh va boshqa ko'plab ilmlarda otasi kabi mashhur olimlik martabasiga erishgan [15:158,159].

Tarixiy manbalarda uning tug'ilgan va vafot etgan sanasi borasida ma'lumotlar keltirilmagan.

5. Fotima binti Muzaffariddin ibn Soatiy. U muallifning qizi bo'lib, ilm bilan tanilgan fazilatli ayollardan biri bo'lgan. U otasidan fiqh ilmini o'rganib, xususan, "Majma' al-bahrayn" asarini ham uning o'zidan ta'lim olgan va undagi ba'zi chigal o'rnlarga izohlarni ham kiritgan [14:27].

Abdulqodir Qurashiy: "Men "Majma' al-bahrayn" asarini uning xati bilan yozilgan nusxasini ko'rganman. U otasining asariga go'zal uslubda izohlar yozgan" deya keltirib o'tgan [2/1:277,278].

Bu ma'lumotlar "Majma' al-bahrayn" asariga muallifning o'zi tomonidan yozilgan sharhni tahqiq qilgan olimlar Solih ibn Abdulloh ibn Solih Lahiydon, Xolid ibn Abdulloh ibn Muhammad Lahiydon va Abdulloh ibn Solih ibn Muhammad Lahiydon tomonidan keltirilgan.

Shuningdek, muallifning qalamiga mansub "Nihayat al-vusul ila ilm al-usul" (Usul al-fiqh ilmiga yetish nihoyasi) nomli asarini tahqiq qilgan Sa'd ibn G'arir ibn Mahdiy Sulamiy uning shogirdlari qatorida quyidagi olimlarni ham keltirgan:

1. Uning tug'ishgan singlisi, "amat al-Aziz" nomi bilan tanilgan olima va faqiha ayol. U akasi Muzaffariddin ibn Soatiyning qo'lida fiqhni, xususan, "Badi' an-nizom" (Bejirim tartib) nomli asarini o'rgangan. Asarning ushbu olimaga tegishli qo'lyozma nusxasi Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasida mavjud. Ushbu nusxada: "Kitob nihoyasiga yetdi. Avval va oxirda Allohga hamd bo'lsin! Bu ish muallifning xatiga tayangan holda 711/1311-yilda Allohning yordamiga muhtoj bir o'jiza Amat al-Azizning qo'lida amalga oshirildi" degan jumlar mavjud [14:28].

2. Nosiriddin Muhammad ibn Ali ibn Tag'lib ibn Soatiy. U muallifning ukasi bo'lib, undan ko'plab ilmlarni, xususan, "Majma' al-bahrayn" asarini ta'lim olgan [14:28].

3. Kamoliddin Abulhasan Muhammad ibn Ahmad ibn Ali ibn Jamil Rib'iy Bag'dodiy. U mutasavvif hamda faqih bo'lgan. Muzaffariddin ibn Soatiyning qo'lida ta'lim olib, undan ko'plab istifoda qilgan. U 692/1292-yilda vafot etgan [14:28].

Muzaffariddin ibn Soatiyning ilmiy faoliyat yo'li asosan ta'lim muassasasida bo'lib, u shogirdlariga fiqh, usul va adabiyot kabi fanlardan ilm berishga e'tibor qaratgan. Yuqorida bayon qilib o'tilganidek, u Mustansiriyya madrasasiga aloqador insonlardan biri bo'lib, ilk faoliyat davrida mudarrisga yordamchi, ya'ni, "المعيد" "al-muid" (takrorlatuvchi) so'ngra mudarris bo'lib faoliyat olib borgan. Biroq asosiy faoliyati ta'lim va tadrish bo'lishiga qaramasdan, ta'lif sohasida ham mohir va peshqadam bo'lgan. Uning yozgan asarlari o'sha davr va hozirgi kunimiz olimlari uchun fan sohalarida asosiy va mo'tabar manba deya e'tirof etib kelinadi.

Muallifning yozgan asarlari keyingi davr olimlari nazdida ulug' maqom va darajaga ega ekanligini uning birgina "Majma' al-bahrayn" asari misolida ko'rishimiz mumkin.

Muhammadamin ibn Obidin "Radd al-muhtar ala ad-durr al-muxtar" asarining muqaddimasida faqihlarning tabaqalarini bayon qilish asnosida quyidagicha keltirib o'tadi:

"Bu tabaqa dalillar ichida aqvo (eng kuchli), qaviy (kuchli), zohir al-mazhab (mazhabning asosi bo'lgan so'zlar), nodir masalalar o'rtasini ajrata olish salohiyatiga ega muqallidlar tabaqasidir. Bu tabaqaga mutaaxxirlardan mo'tabar to'rt matn – "al-Kanz", "al-Muxtor", "al-Majma'" va "al-Viqoya" asarlari – mualliflarini keltirishimiz mumkin. Ularning vazifasi o'z asarlarida mardud qavllarni va zaif rivoyatlarni naql qilmasligidir" [11/1:30]

Hoji Xalifa "Bu benihoya mo'jazligi sababli hifzi yengil, g'oyatda mahorat bilan yozilganligi sababli masalalarini fahmlash qiyin, unda bayon qilingan masalalar misli dengiz, fazilatlar esa tengsiz bo'lgan bir asardir" deya keltirib o'tgan [8/2:1599,1600].

Abdulhay Laknaviy "al-Favaid al-bahiyya fiy tarajim al-hanafiyya" asarida keltirishicha, u shar'iy ilmlar borasida o'z asrining imomi, hofiz, siqa va usul hamda furu' masalalarida mutqin bo'lgan. Hatto o'z zamonasining mashoyixlari uni ilm maydonidagi tengsiz chavandoz, deya e'tirof qilishar edi [4:26].

Abu Muhammad Abdulloh ibn As'ad Yofi'iy (vaf.768/1366) "Mir'at al-jinan" asarida 694/1295-yil hodisalarini zikr qilib, "Bu yilda Ibn Soatiy nomi bilan tanilgan hamda Bag'dod madrasasida hanafiyylar shayxi bo'lgan Muzaffariddin Ahmad ibn Ali vafot etgan. U zakovat, fasohat va husnixat

bobida zarbulmasal qilinar edi. Uning fiqh, usul hamda odob-axloqqa doir ko‘plab tasnifotlari mavjud. U Bag‘doddagi Mustansiriyya madrasasida bir guruh hanafiy fiqhini o‘rganuvchi talabalarga mudarrislik qilgan” deya keltirib o‘tadi [6/4:29].

Muhammad ibn Rofe’ Salomiy u haqda keltirib, “...alloma va taqvo ahlidan bo‘lgan”, – dedi [12:29].

Abduqodir Qurashiy u haqda so‘z yuritib, “U ulug‘ imom hamda fazilat sohibi bo‘lgan. Shamsiddin Asfahoniy (vaf.749/1348) Ibn Soatiyni hurmat qilar va u borada ko‘plab maqtovlarni keltirar edi. Hatto uni Ibn Hojibga (vaf.646/1248) afzal qo‘yib, “Ibn Soatiy Ibn Hojibdan ko‘ra zakovatliroq bo‘lgan”– der edi” deya keltirib o‘tgan [2/1:209].

Yusuf ibn Tag‘ribardiyning keltirishicha, u turli ilmlar borasida mohir, o‘z mazhabi bo‘yicha mutqin hamda o‘z zamonasining benaziri deya e’tirof qilinadigan olim bo‘lgan [18:421].

Tamimiy “at-Tobaqot as-saniyya fiy tarojim al-hanafiyya” asarida keltirishicha, u kuchli zakovat sohibi, balog‘at va fasohatda tengsiz olim bo‘lgan. Uning fasohati, zakovati hamda go‘zal xat uslubi borasida zarbulmasal ham qilinar edi [16:400].

Xayriddin Zirikliy u haqda “... hanafiy fiqhi bilimdoni bo‘lgan” deya keltirgan [17:175].

Umar Rizo Kahola (vaf.1408/1987) uning tarjimai holini keltirish asnosida “faqih, usul al-fiqh bilimdoni hamda adib bo‘lgan” dedi.

Abdulloh Mustafo Marog‘iy (vaf.1364/1945) ham uning keng ilm va fazilat sohibi ekanligini e’tirof etib, “Uning fiqh hamda usulga doir asarlari mavjud bo‘lib, bu asarlar uning ulug‘ martaba sohibi ekanligi hamda hanafiy va shofeiy mazhabining usulini to‘la egallay olgan olim ekanligiga dalil bo‘la oladi” deya keltirib o‘tadi [1/2:97,98].

Ibn Soatiyning ilmiy faoliyatiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, u usuliy va far‘iy masalalarni bayon qilish hamda adabiyot, husnixat va notiqlik sohasida mohir bo‘lganligiga uning yozgan asarlari ham isbot bo‘ladi.

U qisqa muddat umr kechirgan bo‘lsada, uning qoldirgan boy ilmiy merosi keyingi davr olimlari uchun hanafiy fiqhi va usulini fahmlashda yordam beruvchi asosiy manbalar qatorida e’tirof etib kelinadi.

U asosan usul al-fiqh va fiqh borasida asarlar yozgan. Tarixiy manbalarda uning quyidagi asarlari haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan:

1. Majma’ al-bahrayn va multaqa an-nayyirayn. Bu asar fiqh borasida yozilgan muxtasar matn hisoblanadi. Ba’zi manbalarda bu asarning nomi “Majma’ al-bahrayn va multaqa an-nahrayn” bo‘lib kelgan [9/2:101].

Biroq tarixiy manbalarning aksariyati bu asar “Majma’ al-bahrayn va multaqa an-nayyirayn” ekanligini tasdiqlaydi. Muallif bu asarda hanafiy mazhabida mo‘tabar asar hisoblanuvchi imom Quduriyning “Muxtasar al-Quduriy” va Abu Umar Nasafiyning “al-Xilafiyat” manzumasi o‘rtasini jamlagan va ba’zi fiqhiy masalalarni ham kiritgan. Bu asarning nikoh va razoat (emizish) kitobi 1983-yilda Azhar universitetida tahqiq qilingan. Muallif bu asarni umrining so‘ngi yillarida 690/1291-yilda ta’lif qilgan.

Hoji Xalifa bu asar haqida keltirib, “Ibn Soatiy kitobning avvalida “Olimlarni hidoyat topish uchun yulduzlar kabi qilgan Alloh taologa hamdlar bo‘lsin!” deya keltirgan. Muallif bu asarda Quduriyning “Muxtasar”i va Nasafiyning “al-Xilafiyat” manzumasini jamlab, unga ba’zi ziyodaliklar ham kiritgan. U kitobni go‘zal ko‘rinishda tartiblab, muxtasar qilgan. U har bir kitob so‘ngida o‘sha kitobga tegishli bo‘lgan ba’zi nodir masalalarni ham kiritib o‘tgan. Muallifning

o'ziga tegishli bo'lgan nusxasi Sulton Muhammad Fotih masjidida vaqf qilingan kitoblar orasida mavjud. Keyingi davr olimlari tomonidan bu asarga o'ndan ortiq sharhlar yozilgan [8/2:1599,1600].

2. Sharhu majma' al-bahrayn va multaqa an-nayyirayn. Bu asar ikki jilddan iborat bo'lib, uning avvalida "Allohga hamd-u sano, u saylab olgan xos bandalariga salom bo'lsin!" deya boshlangan. Muallif bu asarni o'sha davrda Bag'doddagi abbosiy xalifalardan bo'lgan Abulqosim Abdulloh ibn Yusuf Mustansir billahga atab yozgan. Bu asarning Istanbul shahridagi Valiyiddin Jarulloh Afandi kutubxonasida 704-raqam ostida saqlanayotgan nusxasi mavjud bo'lib, uning birinchi betida "Bu "Majma' al-bahrayn" asariga musannifning o'zi tomonidan yozilgan sharhdir. Bu juz asarning Vaqf kitobigacha bo'lgan qismidir. Uning ikkinchi juzida asarning oxirigacha bo'lgan qismi mavjuddir" degan ma'lumot keltirilgan. Majma' al-bahrayn" asarining bundan boshqa ham ko'plab sharhlari mavjud bo'lib, ular ichida manfa'ti ko'proq bo'lgan sharh bu Ibn Malak (vaf.801/1398) tomonidan yozilgan sharhdir. Ko'plab muhaqqiqlar "Majma' al-bahrayn" asarini tahqiq qilishda ushbu sharhdan foydalanishgan.

3. Badi' an-nizom bayna kitab al-Bazdaviy val ihkam" nomi bilan mashhur bo'lgan "Nihayat al-vusul ila ilm al-usul" asari. Bu asar "al-Badi'" nomi bilan mashhur bo'lganligi sababli olimlar bu asarni shu nom bilan keltirishgan. Ismoil Poshsho Bag'dodiy [9/2:100], Xayriddin Zirikliy [17:175] kabi ba'zi olimlar muallifning tarjimai holini bayon qilish asnosida "Badi' an-nizom" asari hamda "Nihayat al-vusul ila ilm al-usul" asarini alohida asarlar sifatida keltirishgan. Hoji Xalifa bu asar haqida "Bu asar hanafiy shayxlaridan biri "Muzaffariddin" nomi bilan tanilgan Ibn Soatiyning qalamiga mansubdir. Muallif bu asarda hanafiy olimlaridan "faxr al-islom" nomi bilan tanilgan Bazdaviy (vaf. 482/1089) qalamiga mansub "Kanz al-usul" asari hamda shofei mazhabining mashhur imomlaridan biri Sayfiddin Omidiy (vaf.631/1233) tomonidan yozilgan "al-Ihkam fiy usul al-ahkam" asarini jamlagan [14:40].

4. Ad-durr al-manzud fiy ar-roddi ala faylasuf al-yahud (ya'ni, yahudiylar faylasufi Ibn Kammunaga raddiya berish borasida tizilgan dur) [8:1599,1600]. Bu asar falsafa borasida yozilgan bo'lib, muallif bu asarni "Tanqih al-abhas an al-milal as-salas" (Uch millat – yahudiy, nasroniy va islom millati – borasidagi bahslarni tadqiq qilish) [8:495] asarini yozib, nubuvvat (payg'ambarlik) borasida nojo'ya gaplarni gapirgan "Ibn Kamuna" (vaf.676/1277) nomi bilan mashhur bo'lgan Sa'd ibn Mansur ibn Husaynga raddiya sifatida yozgan.

5. Fath al-mujniy sharh al-mug'niy. "Majma' al-bahrayn" asariga Ahmad ibn Ibrohim ibn Ayyub Ayntobiy (vaf.767/1365) tomonidan yozilgan "al-Manba'" nomli sharhni doktorlik darajasini olish uchun tahqiq qilgan Yahyo Muhammadamin Hasan Ibrohim Ibn Soatiyning asarlari ichida "Fath al-mujniy sharh al-mug'niy" asarini ham keltirib o'tgan. Bu asar hanafiy fiqhida mashhur bo'lgan olimlardan Jaloliddin Xobbaziy (vaf.691/1292) tomonidan yozilgan "al-Mug'niy fiy usul al-fiqh" asariga yozilgan sharhdir [7:17].

6. Al-murtaqa sharh al-multaqa fil furu'. Yahyo Muhammadamin Hasan Ibrohim tahqiq asnosida muallifning qalamiga mansub yana bir asarni keltirib o'tgan. Bu asarning nomi "al-Murtaqa sharh al-multaqa fil furu'"dir. Muallif bu asarda hanafiy fiqhiga doir "al-Multaqa" asarini sharhlagan. Bu asar yirik oltita jilddan iboratdir [7:17].

7. Adabiy to'plam. Abu Muhammad Abdulloh Yofi'iy [7:170] va Abdulhay Laknaviy [4:27] muallifning qalamiga mansub adabiyotga doir asar ham mavjudligini keltirishgan. Biroq asar nomini zikr qilishmagan. Ibn Soatiyning tarjimai holi haqida yozilgan asarlar ichida bu ikki

olimning asaridan boshqa manbalarda adabiyot borasida uning asar yozganligi haqida ma'lumot keltirilmagan.

Muallifning tarjimai holi va ilmiy faoliyati haqidagi ma'lumotlardan kelib chiqib xulosa qilishimiz mumkinki, u Mustansiriyya madrasasida talabalarga hanafiy fiqhidan ta'lim berishning o'zi bilangina cheklanib qolmasdan, balki, ta'lif sohasini ham chuqur o'zlashtirib, keyingi davr islom ummati uchun ham keng va boy ilmiy meros qoldirib ketgan.

#### FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulloh Mustafo Marog'iy. Al-fath al-mubin fiy tabaqot al-usuliyin. – Misr: al-murosulat, (Yili ko'rsatilmagan). – J.II. – B.
2. Abdulqodir ibn Abulvafo Muhammad ibn Muhammad ibn Nasrulloh ibn Solim ibn Abulvafo al-Qurashiy al-Hanafiy. Al-javahir al-muziy'a fiy tobaqot al-hanafiyya / Abdulfattoh Muhammad al-Halvo tahqiqi. –Haydarobod/Hindiston: Daru Hajar, 1413/1993.– J.I. – B.
3. Abul fado Zayniddin Qosim ibn Qutlubug'o as-Suduniy. Taj at-tarajim / Muhammad Xayr Ramazon Yusuf tahqiqi.– Bayrut: Dar al-qalam, 1413/1992. – B.
4. Abulhasanot Abdulhay Laknaviy. Al-favaid al-bahiyya fiy tarajim al-hanafiyya. – Misr: Matba'at as-sa'adat, 1324. – B.
5. Abul Maoliy Muhammad ibn Rofe' Salomiy. Tarixi ulamai Bag'dod. – Bayrut/Livan: Ad-dar al-arabiyya lil mavsuat, 1420/2000. – B.
6. Abu Muhammad Abdulloh ibn As'ad ibn Ali ibn Sulaymon al-Yofi'iy al-Yamaniy. Mir'at al-jinan va ibrot al-yaqzon fiy ma'rifati ma yutabaru min havadis az-zaman. – Bayrut/Livan: Dar al-kutub al-ilmiyya, 1417/1997. – J.IV. – B.
7. Ahmad ibn Ibrohim ibn Ayyub Ayntobiy. Al-manba' sharh al-majma'. – Saudia Arabistoni: Madinai Munavvara universiteti, fiqh fakulteti, 1433/2012. – B.
8. Hoji Xalifa. Kashf az-zunun an asamiy al-kutubi val funun. – Bayrut/Livan: Daru ihya at-turos al-arabiy, 2006. –J.II. – B.
9. Ismoil Poshsho al-Bag'dodiy. Hadiyyat al-arifin asma al-muallifin va asar al-musannifin.- Bayrut/Livan: Muassasat at-tarix al-arabiy, 1951.– J.II. – B.
10. Kamoliddin ibn Fuvatiy. Majma' al-adab fiy mo'jam al-alqob / Muhammad Kozim tahqiqi. – Tehron: 1415/1994. – J.V. – B.
11. Muhammadamin ibn Obidin. Radd al-muhtar alad durr al-muxtar / Shayx Odil Abdulmavjud va shayx Ali Muhammad Muavviz tahqiqi. – Riyod/Saudia Arabistoni: Daru a'lam al-kutub, 1423/2003. – J.I. – B.
12. Muhammad ibn Rofe' Salomiy. Tarixi ulamai Bag'dod. – Bayrut/Livan: Ad-dar al-arabiyya lil mavsuat, 1420/2000. – B.
13. Muzaffariddin Ahmad ibn Ali ibn Tag'lib. Sharhi majma' al-bahrayn va multaqa an-nayyiroyn / Solih ibn Abdulloh ibn Solih Luhaydon, Xolid ibn Abdulloh ibn Muhammad Luhaydon va Abdulloh ibn Solih ibn Muhammad Luhaydon tahqiqi. – Riyoz/Saudiya Arabistoni: Dar al-afham, – J.I. – B.
14. Muzaffariddin ibn Soatiy. Muqaddimati nihayat al-vusul ila ilm al-usul (Badi' an-nizom) / Sa'd ibn G'arir ibn Mahdiy Sulamiy tahqiqi. – Makkai mukarrama: Jome'at umm al-quro, 1418/1992. – B.
15. Nojiy Ma'ruf. Tarixi ulama al-Mustansiriyya. – Bag'dod: Maktabat al-aniy, 1379/1959. – B.

16. Taqiyiddin ibn Abduqodir Tamimiy Dariy G'azziy. At-tabaqot as-saniyya fiy tarojim al-hanafiyya / Abdulfattoh Muhammad Halv tahqiqi. – Riyod/Saudia Arabistoni: Dar ar-Rifoiy, 1410/1989. – J. – B.
17. Xayriddin Zirikliy. Al-a'lam. – Bayrut/Livan: Dar al-ilm lil malayin, 2002. – J.I. – B.
18. Yusuf ibn Tag'ribardiy. Al-manhal as-sofiy. – Misr: Al-hay'ay al-misriyyat al-amma lil kitab, 1948. – J.I. – B.
18. <https://ar.wikipedia.org.com>

